



TOP-CONFERENCES

International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies

International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies is a double-blind peer-reviewed, open-access journal published to reach excellence on the scope. It considers scholarly, research-based articles on all aspects of economics, finance and accounting. As an international congress aimed at facilitating the global exchange of education theory, contributions from different educational systems and cultures are encouraged. It aims to provide a forum for all researchers, educators, educational policy-makers and planners to exchange invaluable ideas and resources.

Yangi O'zbekiston Iqtisodiyotini Rivojlantirishda Kichik Va O'rta Biznes Sub`Eklarning Statistik Tadqiqi

Arzikulov Otabek Ali o'g'li

Jizzax politexnika instituti "Iqtisodiyot va menejment" kafedrasida dotsenti

Xolmirzayev Ubaydulla Mamarasul o'g'li

Jizzax politexnika instituti talabasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada mamlakatimizda biznes tendensiyalarining modellari va prognoz natijalarini statistik baholanib, biznesning rivojlanish jarayonlarini modellashtirish va prognozlashga qaratilgan yondashuvlar bayon qilingan. Respublikamizda biznesni rivojlantirishning yaqin yillarda kutilayotgan o'zgarishlari turli usullar yordamida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: biznes, tadbirkorlik, jarayon, bevosita va bilvosita omillar, statistik tahlil, modellashtirish, prognozlash, strategiya.

O'zbekistonda innovatsion va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, kambag'allik darajasini pasaytirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining samarali rivoji uchun huquqiy, moliyaviy-iqtisodiy shart-sharoit yaratish, ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Respublikamiz Prezidenti «Mamlakatimizni 2024-yil va kelgusi 5 yilda rivojlantirish bo'yicha ustuvor yo'nalish va vazifalarni belgilab olishda, eng asosiysi, xalqimiz uchun farovon va munosib turmush sharoitini yaratib berish, odamlarimiz yetarli daromad topishi uchun eng qulay biznes va investitsiya muhitini shakllantirib, yangi-yangi korxonalar hamda ish joylarini ko'paytirishimiz zarur» deb ta'kidlaydi. 2024-yilning 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 417,1 mingtani tashkil etdi.

O'zbekistonda biznes subyektlarini tashkil qilishni soddalashtirish bilan bog'liq chora-tadbirlar olib borilayotganligi sababli ularning soni oshib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga asosan, 2023-2024-yillarda faoliyat ko'rsatayotgan biznes subyektlarining yakka tartibda, yuridik shaxs tashkil etgan holda, shuningdek, jismoniy shaxs sifatida ro'yxatdan o'tganlarni o'sish tendensiyasida ekanligini ko'rishimiz mumkin. «Aholini kichik va o'rta biznesga keng jalb qilishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi prezident qarori qabul qilindi. 2024–2026 yillarda:

1. Kichik biznes loyihalarini moliyalashtirish uchun 800 million AQSh dollarigacha resurs jalb qilinadi;
2. 300 million AQSh dollari miqdorida obligatsiya (yevrobond)lar xalqaro kapital bozorlarida muomalaga chiqariladi;
3. 150 mingta kichik tadbirkorlar faoliyati yo‘lga qo‘yiladi.
4. “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” AJ tomonidan:kichik va o‘rta tadbirkorlarga ko‘rsatiladigan moliyaviy xizmatlar hajmi 8 trillion so‘mdan 14 trillion so‘mga yetkaziladi;
5. 150 ta o‘rta biznes korxonasiga ulush kiritiladi va xizmatlar ipotekasi asosida 300 ta loyiha tadbirkorlarga sotiladi;
6. O‘rta tadbirkorlar soni 2,5 baravarga oshiriladi;
7. 300 million AQSh dollari miqdorida obligatsiya (yevrobond)lar xalqaro kapital bozorlarida muomalaga chiqariladi.
8. 2023 yil 15 dekabrgacha hududlar va davlat dasturlari yo‘nalishlari kesimida 2024 yilda 2 million aholini biznesga jalb qilishning maqsadli ko‘rsatkichlari tasdiqlanadi.
9. 2024 yil 1 yanvardan 2026 yil 1 yanvargacha davlat xaridlari maxsus axborot portalida davlat ishtirokidagi yirik korxonalar bilan kooperatsiya asosida tashkil qilingan kichik tadbirkorlarga o‘zlari ishlab chiqargan tovarlarni davlat buyurtmachilariga bir yilda 10 milliard so‘mgacha to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomalar asosida sotishga ruxsat beriladi.

O‘zbekiston Respublikasida 2024-yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi 43 452,4 mlrd so‘mni yoki o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 103,5% ni tashkil etdi.

Shundan eng ko‘pi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri kelib, 37 765,9 mlrd so‘mni, kichik korxonalar va mikrofirmalar esa 5 686,5 mlrd so‘mni tashkil qildi. Mamlakatimizda sohaga oid qabul qilingan farmon va qarorlarda belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta‘minlash va yuqoridagi vaziyatni e‘tiborga olgan holda biznesning rivojlanish jarayonlarini statistik tahlil qilish, modellashtirish va prognozlashning uslubiy asoslarini ishlab chiqish segmentlariga differensial yondashish, rivojlanish tendensiyalarini zamonaviy talablar asosida statistik nuqtayi nazardan qayta ko‘rib chiqish, prognoz ko‘rsatkichlarini asoslashda normal taqsimot va optimal qiymatlar kabi qonuniyatlardan foydalanib statistik ishonch intervali darajasini oshirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar qamrovini kengaytirish maqsadga muvofiq. Mamlakat YAIM tapkibidagi biznes ulushini ko‘paytirish jarayonida ishtirok etuvchi hamda ularga bevosita va bilvosita ta‘sir qiluvchi, shu bilan birga, bir-biri bilan o‘zaro statistik aloqada bo‘lgan omillar, bu omillar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ta‘sir darajasini aniqlash O‘zbekistonda biznes rivojlanish jarayonlarini statistik tahlil qilish usullarini takomillashtirish, biznes rivoji tendensiyalarini prognoz qilish, tahlil natijalari asosida qay bir sohaga e‘tibor qaratish lozimligini aniqlash, biznesning rivojlanish tendensiyalari modelini tuzish va uni baholash biznesning rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash va tanlash imkonini yaratadi. Ko‘p omilli regressiya tenglamalarini tuzish modellarni shakllantirish masalalarini yechishdan boshlanadi. Ular o‘z ichiga ikki masalani oladi: **birinchisi**, omillarni saralash bo‘lsa, **ikkinchisi**, regressiya tenglamasi ko‘rinishini tanlashdan iborat. O‘zbekistonda kichik biznes tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmiga ta‘sir etuvchi omillarning 2010–2024 yillar davomidagi o‘zgarishi o‘rganildi. Biznesning YAIMdagi hajmi bog‘liq o‘zgaruvchi sifatida va uni shakllanishiga ta‘sir etuvchi 14 ta omil o‘zgaruvchilar, ekonometrik model tuzishda “Katta sonlar Qonuni” tamoyiliga asosan omillar tanlab olinadi. Tanlangan omillarni biznesning rivojlanishiga ta‘sir etuvchi bevosita va bilvosita omillarga bo‘lish orqali ularning algoritmi ishlab chiqildi hamda ushbu omillar biznes rivojlanishiga qay darajada ta‘sir ko‘psatishini gipotezalar asosida tahlil qilindi. Bunda bevosita ta‘sir etuvchi omillarga kichik biznesning qishloq, o‘rmon va baliq ho‘jaligi tarmog‘idagi, qurilishdagi, savdodagi, yuk tashishdagi, sanoatdagi, yuk aylanmasidagi, yo‘lovchi

tashishdagi, yo'lovchi aylanmasidagi hajmi kabi 8 ta omillar guruhi va bilvosita ta'sir etuvchi omillarga kichik biznesning eksport hajmidagi, investitsiyadagi, pulli xizmatlardagi, jami xizmatlardagi, import hajmidagi, bandlikdagi hajmi kabi 6 ta omil guruhiga ajratildi. Modelni shakllantirishda natijaviy va omil belgilarda multikolli-neaplikni tekshirish uchun koppelatsion jadvali tuzildi. O'n xil variantda modellar orasidagi aloqadorlik tekshirildi, juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari 0,8 dan yuqori bo'lgan kollinear omillardan birini regressiyadan chiqarib tashlandi. Bevosita omillar ta'siri natijasida biznesning sanoatdagi ulushi va kichik biznesning yuk aylanmasidagi ulushi 1 foizga ortishi mos ravishda kichik biznes hajmini 0,37 foizga va 0,21 foizga kamayishiga olib kelishi aniqlandi. Agar kichik biznes subyekting qurilishdagi ulushi bilan savdodagi ulushini 1 foizga oshirilsa, u holda kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan yalpi mahsulot hajmi mos ravishda 1,28 foiz va 0,61 foiz qo'shimcha oshirish imkoniyati mavjudligi aniqlandi. Bunday natijalarga ko'ra, hozirgi kunda kichik biznes subyektlari faoliyatini qurilish hamda savdo sohaslariga qaratish maqsadga muvofiq. Yuqoridagi ikki modelning natijalari umumlashtirilib, biznes rivojlanishining senariy holatlarida bevosita va bilvosita ta'sir qiluvchi omillar natijaga ta'sir kuchi bo'yicha tabaqalangan, ya'ni bevosita ta'sir etuvchi eng kuchli omil qurilish sohasi bo'lib, bilvosita ta'sir qiluvchi omil eksport ekanligi aniqlandi. Kichik biznes sohasida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmiga ta'sir qiluvchi bevosita va bilvosita omillar asosida ishlab chiqilgan modellarga asosan biznes jarayonlarining prognoz variantlarini ishlab chiqish mumkin (4-jadval).

**Biznes jarayonlarini rivojlanishining 2021-2026 yillapdagi pognoz vapiant senariylari
(o'lchov birligi mlrd. so'm)**

No	Sstenariylar		2021y	2022y	2023y	2024y	2025y	2026y
1	Pessimistik	I variant	282197,6	291341,7	3045064,7	354308,7	361242,3	368597,1
		II variant	278944,7	291068,2	303186,8	330117,4	354649,2	359642,8
2	Bazisli	I variant	30148,58	324150,2	376686,3	391586,6	444926,3	450326,2
		II variant	292278,5	311260,5	357525,0	396211,9	434359,4	446388,2
3	Optimistik	I variant	32869,45	388269,9	411148,0	432669,5	553596,7	560124,7
		II variant	305090,8	330345,4	412769,9	432669,5	515279,0	523104,9

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, pognoz variantlariga asosan 2026- yilga kelib, pessimistik nazariyaning I vapianti bo'yicha 368597,1 mlrd. so'mlik kichik biznes sohasida ishlab chiqarilgan mahsulotlari ishlab chiqarilsa, II vapiant bo'yicha 359642,8 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqariladi. Optimistik senariy bo'yicha I vapiantda 560124,7 mlrd. so'mlik biznes mahsulotlari ishlab chiqarilsa, II vapiant bo'yicha 523104,9 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilishi kutilmoqda. 2026- yilgacha biznes japyonlari rivojlanishi modelining prognoz aniqligi MAPE mezoni tekshiruv natijalari bo'yicha va muqobil senariylar pessimistik, optimistik va bazisli usullarda II xil variant asosida hisoblandi. Ushbu variantlar asosida model qurish va pognoz qilish pandemiya va undan keyingi davrlardagi o'zgarishga tayyor turish, sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash darajasi, shakllari va usullariga bog'liq bo'ladi. Biznesning iqtisodiy-statistik tahlilini takomillashtirish biznes subyektlarining iqtisodiy faoliyati tahlili va rejalashtirishni takomillashtirishga qaratilgan tadbirlardan biri ekanligi, biznesning rivojlanishini ekonometrik modellar yordamida kuzatish, o'rganish va prognozlash muhim ahamiyatga ega. Tadqiq qilinayotgan biznesni rivojlanish tendensiyalari sakkizta bevosita (I vapiant) va oltita bilvosita omil(II vapiant)ga ajratilib, jarayonning ekonometrik modellari optimistik, pessimistik va bazisli ssstenariylar asosida prognoz qilindi. Prognoz natijalariga asosan 2026- yilga kelib, pessimistik nazariyaning I vapianti bo'yicha 368597,1 mlrd. so'mlik kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari tomonidan mahsulotlar ishlab chiqarilsa, II variant bo'yicha 359642,8 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqariladi. Optimistik ssstenariy bo'yicha I variantda 560124,7 mlrd. so'mlik biznes mahsulotlari ishlab chiqarilsa, II vapiant bo'yicha 523104,9 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilishi kutilmoqda. Yaratilgan ekonometrik model Respublikada biznesni rivojlanish jarayonini monitoringini olib borishda muhim o'rin egallashi va mamlakatda biznes jarayonini boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi 25.01.2020//<https://uza.uz/oz/politics>
2. Salayev S.K. “Kichik biznes rivojlanish tendensiyalarini modellashtirish va bashoratlash”. Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. – {} 2008 y.
3. Abdullayeva I.M. “Ekonometricheskiy analiz xozyaystvennoy deyatelno-sti firmi (na primere AOOT “Roxat” Namanganskoy oblasti). Doktorlikdissertatsiyasi avtoreferati. – {} 2008 y.
4. Djalilov X. “Iste’mol sarflari va YAIM o‘rtasidagi bog‘lanishningstatistik tadqiqot usullarini takomillashtirish” (MHTasosida). Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. – {} 2004 y.
5. Saidova M.X. “O‘zbekictonda biznec pivojlanish japayonlapini stati-stik tahlil qilish usullarini takomillashtirish” Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: 2021
6. Rixsimboyev O.Q. “O‘zbekiston Respublikasida kichik va o‘rta biznesningustivor yo‘nalishlarini ekonometrik bashoratlash”. Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: 2002 y.
7. Ali o‘g‘li, A. O. (2022). RAQAMLI IQTISODIYOTNING JADALLASHUVIDA JIZZAX VILOYATIDA KICHIK TADBIRKORLIK FAOLIYATINI STATISTIK TADQIQ ETISHNING ASOSIY JIHATLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 94-96.
8. Кузьмина, С. Н., & Атамуратова, Г. М. (2023). МЕТОДЫ УПРАВЛЕНИЯ КРЕДИТНЫМ ПОРТФЕЛЕМ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ. *ҚО ‘ҚОН UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 9, 11-16.
9. Otabek, A., & Dilshod, T. (2023). TIJORAT BANKLARINING KREDIT PORTFELINI BOSHQARISH YO‘LLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 158-167.